

# Ilmiy hamkorlik-rivojlanish asosi

Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida Rossiya Federatsiyasi Oltay davlat Universiteti, “Ekologiya, bioximiya va biotexnologiya” kafedrasida professori, “Acta biologica sibirica” (Scopus Q2) ilmiy jurnalining bosh muharriri Yakovlev Roman Viktorovich boshchiligidagi mutaxassislar bilan uchrashuv o‘tkazildi. Uchrashuvda o‘zaro hamkorlik masalalari, ilmiy aloqlarni rivojlantirish, hamkorlikda ilmiy-amaliy loyihalarni rejalashtirish hamda ilmiy maqolalarni chop etish kabi masalalar bo‘yicha fikrlar almashinildi. Shuningdek, kelajakda o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish bo‘yicha ishlar rejalashtirib olindi.

